O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

ALI DJURAYEV

MAQOM CHOLG'U IJROCHILIGI (UD)

M43

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI
O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI

ALI DJURAYEV

MAQOM CHOLG‘U IJROCHILIGI (UD)

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 60211500 – Cholg‘u ijrochiligi: (an’anaviy cholg‘ular) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Maqom cholg‘u ijrochiligi” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan)

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O‘ZBEK MILLIY MUSIQA SAN’ATI INSTITUTI
Inv. № 6696
AXBOROT RESURS MARKAZI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

M 43
Dj-40

UO'K: 78.071.1(575.1) (092)
KBK: 85.31g(5O')
A 11

Djurayev A.A.
Maqom cholg'u ijrochiligi (Ud) [Matn]: o'quv qo'llanma / A.A.Djurayev. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 124 b.

Maqom cholg'u ijrochiligi fanini o'qitishdan asosiy maqsad – talabalarni cholg'u ijrochiligi, yakka ijrochilik, ansambl va o'zbek musiqa merosi haqidagi tasavvurlarini oshirish, muayyan cholg'uni professional ijro etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Mazkur o'quv qo'llanma 60211500 – Cholg'u ijrochiligi: (an'anaviy cholg'ular) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi ixtisosligining "Ud sinfi" uchun mo'ljallangan bo'lib, unda maqomlar tarixi va cholg'u ijrochiligi, ud cholg'ularida ijrochilikka doir ma'lumot, mashqlar, talabalar ijro qilishi uchun asarlar notasi hamda ular haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

O'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichi kunduzgi va sirtqi bo'lim talabalari, professor-o'qituvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:
R.Qosimov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasi professori.

Taqrizchilar:
I.Arabov – Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasi mudiri, dotsent.
K.Mirzayev – O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi professori.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Guvohnoma raqami: 560278

ISBN 978-9910-06-526-2

© Djurayev A.A., 2025.
© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.

KIRISH

O‘zbek mumtoz musiqa merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlaridan tortib betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analarigacha ma’naviy hayotimizda alohida va muhim o‘rin egallaydi. Necha-necha asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va Sharq mamlakatlarida, balki, dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongani ma’lum.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2018-yil 6-apreldagi “Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarorlarida mamlakatimizdagi uzluksiz musiqa ta’lim tizimida maqom san’atini chuqur o‘rganish vazifalari qo‘yilgan edi. Darhaqiqat, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, *“Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi va o‘rgamoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz hamda o‘rganishimiz kerak”*[1]. Qolaversa, Muhtaram Prezidentimizning 2023-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida: *“Biz Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so‘z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqatimizni yana bir bor tasdiqladik. Mana shunday huquqiy asosda “O‘zbekiston – 2030” taraqqiyot strategiyasini qabul qildik. Bu strategiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga uyg‘un bo‘lib, biz o‘z zimmamizga olgan barcha majburiyatlarni to‘la va qat’iy bajarmoqdamiz”*[2], - deya, ta’kidlagan edilar. Strategiyaning “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish” deya nomlangan birinchi yo‘nalishi 44 ta maqsadni jumlagan, aholi talablariga va xalqaro

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining I Xalqaro Maqom san’ati anjumanidagi nutqidan (2018-yil 5-sentyabr)

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida 2023-yil 19-sentyabr kuni so‘zlagan nutqidan.

standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim tizimi yaratish, aholi salomatligini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish, yoshlarga oid davlat siyosati va sport, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan islohotlarni qamrab olgan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ta’lim tizimida maqom ijrochiligi asoslarini chuqur o‘rganish va o‘zlashtirish dolzarb masalalardan biri ekani yanada oydinlashadi. O‘z o‘rnida maqomlarning cholg‘u yo‘llari va maqom cholg‘u ijrochiligi masalasi ham zarurat kasb etayotgan yo‘nalishlardan biridir.

Ma’lumki, har bir millatning milliy musiqiy cholg‘ulari, xalqlarning musiqa madaniyatidagi eng noyob yodgorliklari sifatida qadrlanib kelingan. Xalq amaliy san’ati namunasi ko‘rinishida mahoratli sozgar ustalar tomonidan yaratilib kelinayotgan musiqiy cholg‘ular, davrlar osha takomillashib borgan. Eng muhimi bu jarayon o‘tgan davrning har bir zamonasiga mos holda takomillashib, rivojlanib kelgan.

Barcha xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham o‘z milliy qadriyatlari, an’analari negizida yuzaga kelgan musiqiy cholg‘ulariga ega. O‘zbek milliy musiqa cholg‘ulari o‘zining barkamolligi va rang-barangligi bilan boshqa xalqlar cholg‘ularidan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, xalqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlari va o‘zaro madaniy aloqalarida, milliy ijodiyot rivojidagi bir-biriga bo‘lgan ta’sirida umumiylik jihatlari bilan sug‘orilgani yoki turfa xalqlar tomonidan yaratilgan turli cholg‘ularning turfa hududlar amaliyotiga kirib kelishi kuzatilgani tarixdan ma’lum. Ijrochilik amaliyotida o‘ndan ortiq: tanbur, dutor, sato, g‘ijjak, chang, qonun, rubob, nay, surnay, qo‘shnay, karnay, nog‘ora va doyra kabi har tomonlama mukammal musiqiy cholg‘ularimizning borligi quvonarli. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, musiqiy cholg‘ular ham xalqimizning ma’naviy merosi sifatida katta ahamiyatga, ko‘hna madaniyatga va qadimiy an’anaga ega.

Milliy musiqiy merosimizdan o‘rin olgan cholg‘ularimizning hammasi ham ana shunday ko‘hna o‘tmishga ega bo‘lgan cholg‘ulardan hisoblanadi va ularning har biri ijrochilik amaliyotida o‘zining o‘rniga egadir. Ular orasida ud sozi ham o‘zining betakror tembri va tarannumi bilan musiqa sadolariga o‘zgacha joziba baxsh etib kelayotgan

cholg‘ular sirasiga kiradi. Cholg‘ular ma’naviyatimizning ko‘zgusi, madaniyatimizning in’ikosi ekanini alohida ta’kidlash joiz.

Ud cholg‘usi va ijrochilari xususida tarixda yozilgan bir qator musiqiy risolalarda turli ma’lumotlar bizga qadar yetib kelgan. Xususan, IX asrda yashab ijod etgan “Muallim ul-soniy” Abu Nasr Forobiydan boshlangan ko‘hna Sharq musiqashunoslik ilmi bugunga qadar musiqiy risolalar yaratgan allomalar Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Zaynullobiddin Husayniy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi musiqashunos olimlarning musiqiy risolalarida o‘ziga xos tarzda aks ettirilganligi musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan o‘zgacha e’tibor va hurmat namunasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

XX asrda esa jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, qomusiy alloma, ma’rifatparvar shoir va yozuvchi, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”[3], Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li va Muhammadyusuf Devonzodalarning “Xorazm musiqiy tarixchasi”[4], Viktor Belyayevning “Музыкальные инструменты Узбекистана”[5], Fayzulla Karomatovning “Узбекская инструментальная музыка”[6], Is’hoq Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir”[7] (2006-yili “Maqomlar” nomida qayta nashr etilgan), R.Qosimovning “Ud”[8], “An’anaviy ijrochilik”[9], S.Begmatov va M.Matyoqubovlarning “O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari”[10] kabi cholg‘ularga bag‘ishlangan turli janrlardagi kitoblari nashr yuzini ko‘rdi.

Ushbu ilmiy asarlarda barcha musiqiy cholg‘ular qatori ud cholg‘ulariga ham alohida e’tibor va o‘rin ajratilgan. Cholg‘u sozining tuzilishi, shakli, torlari, sozlanishi, ijrochilik jihatlari turlicha

---

[3]Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Т.: “Фан” нашриёти. 1993.
[4]Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммадюсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси. – Т.: “Ёзувчи” нашриёти. 1998.
[5]В.Беляев. Музыкальные инструменты Узбекистана. – М., 1933.
[6]Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. – Т., 1972.
[7]Исҳоқ Ражабов. Мақомлар масаласига доир. – Т., 1993.
[8] Рифатилла Қосимов. Уд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 2002.
[9]Рифатилла Қосимов. Анъанавий ижрочилик. – Т.: “Фан” нашриёти. 2007.
[10] Begmatov S, Matyoqubov M. O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari. – T.: “Yangi nashr” nashriyoti. 2008.

yoritilganligini kuzatamiz. Biroq, o'zbek musiqa merosida ud cholg'usining alohida ahamiyati, uning tarixi o'zgacha bo'lgani bilan asosiy cholg'ulardan ekanligi bot-bot eslatiladi. Bu cholg'ularga bo'lgan qiziqish va ijrochilik amaliyotining ko'p asrlik tajribalarga asoslangan an'analarini o'rganilmagan jihatlari mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu jihatlarni o'rganish va bilish doimo cholg'ularning tarixi xususida izlanishlar olib borishga undaydi. Shu nuqtayi nazardan, an'anaviy cholg'u sozlarini o'rganish va unda ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayoni bilan bog'liq mavzu masalalar hamisha dolzarb masala bo'lib kelganini qayd etish mumkin.

Maqom cholg'u ijrochiligi o'ziga xos tadrijiy bosqichlar va ijro an'analariga ega. Unda xalq cholg'ulari imkoniyatlaridan ham oqilona foydalanish ijtimoiy va kasbiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" fanining namunaviy o'quv dasturi takomillashtirilib, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlandi. Unda cholg'u ijrochiligi uzluksiz musiqa ta'limida uzviy va yagonalashtirilgan tarzda o'qilishi nazarda tutilgan. Jumladan, eng qadimiy cholg'ularimizdan hisoblangan ud cholg'usi maqom ijrochiligida muhim o'rin tutishini hisobga olib, uni uzluksiz musiqa ta'lim tizimida – bolalar musiqa va san'at maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida uzviy o'qitish belgilangani barchaga ayon. Ushbu o'quv qo'llanma ana shu voqeliklarning hosilasi bo'lib, u namunaviy fan dasturiga asosan ishlab chiqilgan ishchi fan dasturi asosida tuzilgan.

Maqom cholg'u ijrochiligi fanini o'qitishdan maqsad – talaba cholg'u ijrochiligi, yakka ijrochilik, ansambl va o'zbek musiqa merosi haqida tasavvurlarga ega bo'lishi, muayyan cholg'uni professional ijro uslubuni o'zlashtirishi, ijro maktablari bilan tanishishi, bilim va ko'nikmalar hosil qilishi lozimligidir.

Maqom cholg'u ijrochiligi fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar talabalar tomonidan turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iborat. Talaba iqtidorini rivojlantirishga imkon darajasida harakat qilishi, uning o'ziga xos jihatlarini to'la namoyon etishi, uslubida ixtisoslashgan cholg'usi

ijrochiligiga oid barcha ma'naviy boyliklardan foydalangan holda sozandaga saboq berish, milliy ijrochilik uslubini qo'llay bilish kabi bilim va ko'nikmalarini namoyish etishi zarur. Qolaversa, musiqa sohasidagi o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, maqom ansambllari va badiy jamoalarda, musiqiy madaniyat muassasalarida ishlash ko'nikmalarini olishlari zarur.

"Maqom cholg'u ijrochiligi" fani maqom ijrochiligida ud cholg'usi kursining asosiy maqsadi bo'lajak sozandalarga maqomlarning cholg'u va ashula bo'limlarida ud cholg'u ijrochiligining nazariy va amaliy asoslari bo'yicha bilim hamda malaka berishdan iborat. Kursning asosiy vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

- Bo'lajak sozanda va xonandalarni ud cholg'usi va uning xususiyatlar bilan to'liq tanishtirish;
- Maqomot tarixidagi ud cholg'u ijrochiligi bo'yicha bilim berish.
- Hozirgi zamon maqom ijrochiligida ud cholg'usi imkoniyatlaridan foydalanish malakasi bilan qurollantirish;
- Ustoz va mohir san'atkorlarning ud cholg'usi ijrochiligi bo'yicha tajribalarini o'rgatish;
- Ud cholg'usi bo'yicha yakka ijrochilik uslubini shakllantirishga yo'naltirish.

Ushbu o'quv qo'llanma ud cholg'u ijrochiligida yuzaga kelgan amaliy tajriba va ijrochilik an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lgan sozandalar, ularning ijro uslublari asosida yuzaga kelgan ustoz-shogird an'analari haqida talabalarga nazariy va amaliy bilim olishlari uchun ajoyib manbadir. Bundan tashqari, talabalar cholg'u ijrochiligida amaliy bilimlarga ega bo'lishi uchun Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, o'zbek xalq hamda bastakorlik asarlarini ijro uchun nota namunalarini ham keltirishni lozim topdik.

I BOB. SHASHMAQOM, XORAZM MAQOMLARI VA FARG'ONA-TOSHKENT MAQOM CHOLG'U YO'LLARIDAN

XX asrda yashab ijod etgan Rajabiylar sulolasining yirik vakili, maqomshunos alloma, san'atshunoslik fanlari doktori Is'hoq Rizqiyevich Rajabov ta'rifiga ko'ra "Maqomlar – xalq musiqasi qomusidir"[11]. Darhaqiqat, o'zbek mumtoz musiqa san'atida maqom janrining o'rni va ahamiyati beqiyos. Birinchi o'zbek professori, qomusiy alloma Abdurauf Fitrat "U shunday musiqaki, birgini bo'lagida 300 ga yaqin kuy va ashulalar mujassam"[12] deganda ham aynan Shashmaqomni nazarda tutgan edi.

Mumtoz maqom san'ati O'rta Osiyoda kasbiy musiqa an'analari vujudga kelgan davrlardan boshlab rivojlana borgan. Kasbiy musiqa san'ati esa san'atshunoslik fanlari doktori Oqilxon Ibrohimov fikricha Kushon saltanati davrida paydo bo'lgan ekan[13]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda kasbiy musiqa an'analari 2000 yildan ziyod vaqt mobaynida taraqqiy etayotgan ekan, o'tgan davr mobaynida bobokalonlarimiz ijodiy tafakkurining mumtoz mahsuli sifatida maqomot O'zbekiston hududida keng yoyilib, kasbiy musiqa amaliyotida muqarrarlashdi. O'z rivojlanish tarixi davomida yetti maqomdan boshlab bugungi olti maqom (Shashmaqom) va uning andozasida vujudga kelgan Xorazm maqomlari, o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari misolida biz ulug' o'tmish, ko'hna tarix, beqiyos tajriba va qadriyat darajasidagi an'analarga egalik qilayotgan xalq ekanimiz bilan hamisha faxrlanmog'imiz darkor.

Ushbu buyuk merosni munosib o'rganish, o'rgatish va targ'ib qilish biz avlodlar gardanidagi muqaddas burch sifatida hamisha dolzarb ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, bugungi kunda ushbu mas'uliyatli vazifani, muqaddas burchni ado etmoq uchun Yangi O'zbekistonda professional musiqa borasida ham yetarlicha imkoniyatlar mavjud bo'lib, undan oqilona foydalanmog'imiz lozimligi hamisha his etamiz.

---

[11] I.Rajabov. Maqom asoslari. Toshkent, 1992-y. 8-b.
[12] A.Fitrat. Shashmaqom // Maorif gazeti. 1925-y. 2-son.
[13] Sh.Ayxodjayeva, Ch.Ergasheva, A.Zokirov. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent, 2021. 32-bet.

Yuksak badiiy merosni tadqiq etish, uning ijrochilik amaliyotini rivojlantirish, o‘rganish va o‘rgatish maqsadida tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanmada mumtoz maqom san’ati turkumlariga katta o‘rin ajratilgan.

“Musiqiy cholg‘ular insoniyat ma’naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya’ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix davomida, doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e’tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan”[14].

Cholg‘ularni yasash va ularda ijro etish boshlang‘ich davrlarda taqlidga o‘xshagan bo‘lishi muqarrar. Keyinchalik, ularga bo‘lgan e’tibor kuchaygan, shuning uchun cholg‘ularning turli xillari yaratilgan. Ularning ovoz chiqarishlaridagi tembrlari ham xilma-xilligi namoyish etilgan. Cholg‘u sozlar qanchalik mukammallashgan sari, ijro etiladigan musiqa namunalari ham mukammallasha borgan. Natijada, mumtozlik xususiyatga ega bo‘lgan asarlar ijodda ham o‘z ifodasini topib boravergan. Asrlar davomida musiqa yaratish hayot bilan shunchalar uyg‘unlashib borganki, bora-bora ulkan musiqiy meros vujudga kelgan.


Farabi'nin Udu

O‘zbek xalq cholg‘ularining rang-barang tarzda ijro amaliyotida yuzaga kelishi, musiqa merosining barcha tarmoqlariga mos cholg‘ularni dunyoga kelishi va arslar osha rivojlanib kelganligi kitoblarda o‘z aksini topgan. O‘tmishda yashagan va ijod etgan

[14]S.Begmatov, M.Matyoqubov. O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari, Toshkent, 2006-y. 3-b.

allomalar Al-Farobiy (IX) o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iy (XIV) "Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Ahmadiy (XIV) "Sozlar munozarasi" asarida, Zaynullobiddin Xusayniy (XV) "Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) "Musiqiy risola"sida, Darvesh Ali Changiy (XVII) "Musiqiy risola"larida musiqa cholg'ularini atroflicha o'rganib, o'z davrlarida amaliyotda bo'lgan namunalar haqida batafsil ma'lumot berib, ularni yaqindan o'rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to'xtalib o'tganlar. O'z davri musiqiy cholg'ularining har tomonlama tasnifotini ham bayon etganlari ma'lum.

Aytish kerakki, o'tmishda yashagan taniqli shoirlar ham o'zlarining badiiy asarlarida musiqa cholg'ulariga katta e'tibor qaratganlar. Badiiy adabiyot namunalaridagi ma'lumotlar ham tarixni bilish to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Ular musiqa cholg'ulari nomlarini kitoblarga zikr etishda, o'z davri yoki xalq ijodiyotida afsonaviy tarzda qo'llanilgan cholg'u sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ularning orasida o'z ijodi bilan ma'rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning kitoblarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli tomonlari, mumtoz musiqaning ahamiyatli tomonlari va ijodiyotida tutgan o'rnini, musiqiy cholg'ularni esa teran olimlik bilan ularni xarakteriga tegishli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar.

O'zbek musiqasini o'rganishda oxirgi yillar davomida o'zbek milliy cholg'ularini o'rganishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar olib borildi. Buyuk allomalar yozgan risolalardan tashqari XX asrda musiqashunos olimlar tomonidan yozilgan va o'z vaqtida nashr etiligan kitoblar hozirgi zamonimizga kelib ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Abdurauf Fitratning XX asr boshlarida yozgan va 1927-yili nashr etilgan "O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi" nomli risolasi, Viktor Belyayevning "Музыкальные инструменты Узбекистана " kitobi 1933-yili nashr etilgan, Fayzulla Karomatovning "Узбекская инструментальная музыка" 1972-yili chop etilgan bo'lsa,

Tamara Semyonovna Vizgoning musiqiy cholg'ularni tarixiy va badiiy jihatdan yoritgan "Музыкальные инструменты Средней Азии"[15] kitobi 1980-yili nashr yuzini ko'rgan edi. Ushbu kitoblarda o'zbek an'anaviy milliy cholg'ularining tarixi, rivojlanish bosqichlari, shakllari hamda ijroviy imkoniyatlari xususidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Tarixiy qo'lyozmalar, shoirlarning badiiy asarlarida va musiqaga bag'ishlangan risolalarida Markaziy Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg'ularining nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa sozlarga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbad, ud, rud, qobuz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar turli darajadagi ma'lumotlar bilan qayd etilgan edi.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbek cholg'u ijrochiligi amaliyotida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib musiqiy iste'molga kirib keldi. Ushbu cholg'ularning turli variantlari tarixiy ijro amaliyotida qo'llanilgan bo'lsada, shu davrga kelib yangicha yondashishlar yuzaga kelganligi sezish mumkin. Ayniqsa, ud va qonun cholg'u sozlari qaytadan tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg'on rubobi hamda kurd sozlari ham o'ziga xos jozibasi bilan ijrochilik amaliyotidan munosib o'rin oldi.

O'zbek cholg'u ijrochilik amaliyoti o'zining betakror tarixi bilan ushbu sohaning keskin rivojlanib kelganligini ko'rsatadi. Musiqa cholg'ulari, cholg'u musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan amaliyotda bir-birini to'ldirib, rivojlanib kelgan. Bu jarayon cholg'ularning zamonga qarab takomillashishiga zamin yaratib kelgan, desak xato qilmagan bo'lamiz.

O'zbek an'anaviy cholg'ularining tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy an'analari negizida amalga oshirilib kelingan. Ayniqsa, mumtoz musiqa, ya'ni kasbiy musiqamizning ijodiyoti va ularning rivoji

---

[15]Т.С.Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии. – М., 1980.

aynan musiqa cholg'ulari bilan chambarchas bog'liqligini qayd etib o'tish lozimdir. Chunki, mumtoz musiqa ijodiyoti cholg'ularning mukammallik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ularni rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan. Shu bois bo'lsa kerak, cholg'ular va cholg'u musiqasi an'analari o'zining shakllanish davri, ya'ni qadim zamonlardan boshlab xalq musiqa madaniyatining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

O'rta asrlarda musiqiy jarayonga ko'proq ahamiyat bera boshlagan adabiyot namoyandalaridan Firdavsiy, Rudakiy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy va Navoylardir. Ularning adabiy merosida cholg'ular faqatgina nomlari keltirilmagan. Balki ma'lumotlar keltirilgan cholg'ularning shakliy va ijroviy xususiyatlari badiiy obrazlarga xos ta'riflanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan: Firdavsiy "Shohnoma"da yozadi:

Yig'ildi akobir, cholg'uchi, raqqos,
Podsho shodligidan sochar dur, olmos.
Chiqar avjiga nay, childirma sasi,
Chirillab aylanar qizlar galasi.
Ulug'lar sha'niga qadah paydar-pay,
Sahargacha tinmas tanbur, rubob, nay[16].

Alisher Navoiyda esa cholg'ularga emas, avval cholg'u ijrochiligiga e'tibor qaratiladi. So'ngra har bir cholg'uning sadolanishi va har tomonlama ta'rifini keltirganligini guvohi bo'lamiz.

Navoiy yozadi – "*Shodlik oshiruvchi xonanda: g'amni tarqatuvchi sozanda – bularning har ikkisiga hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar...*" deb xoanda va sozandani ta'rifini keltiradi. Ya'ni, ohang u qanday bo'lmasin insonga yoqadigan bo'lsa, u ma'naviy ozuqa sifatida insonga ta'sir etadi. "*Yoqimli ovozu mahorat bilan kuylaydigan xonandadan dard ahlining o'ti yana alangalanadi. Agar go'zal bo'lsa hissiyot ahlining o'rtasida qiyomat ko'tariladi. Har bir sozandaning kuyi dardliroq ijro etilsa, uning chertishi dardli yurakka qattiqroq ta'sir qiladi...*" – deb uning ijrochiligini baholaydi. "*Ochiq*

[16] A.Firdavsiy. "Shohnoma". – T., "G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" nashriyoti. 1984-y. 199-b.

chehrali xonanda yoqimli ovoz bilan kuylasa dardli odamning kuygan bag'ridan tutun chiqaradi. Fahm-farosatli sozandaning yoqimli ijrosi hatto toshko'ngil odamni ham maftun etadi. Xususan, o'zi chalib o'zi kuylasa ko'ngil mulkiga qo'zg'olon soladi"[17] – deb cholg'udan chiqadigan ohangning ta'sirini shunchalar qudratga ega bo'lishi borasida o'quvchilarga xabar berayotganligini ko'rish mumkin.

Bevosita cholg'ularning sadosi va ularning qudrat kuchi haqida A.Navoiy o'z asarlarida quyidagilarni bayon etgan: "*Mayxonada kimki may ichishdan ibo qilsa, Nay ovozi bir dilkash navo bilan uni rasvo qiladi-qo'yadi. Agar kishi may zavqini unutib, ichishdan tortilar ekan, g'ijjak cho'ziq nolalar chekib, unga yolboradi va tanbur pardalari maftunkorlik bilan halok etadi, uning halovat pardasini chok etadi. Chang zorlanib bo'g'zini cho'zadi, ud tilining ingrab yolborishi changnikidan ham ortadi. Qachonki rubob boshini yerga qo'yib iltimos qilganda, qo'buz quloq tutib, kayf-safo ohangini tuzadi. Bular bilan barobar qonun va chag'ona asboblarining nolasi quloqqa eshitilganda, shu payt oydek soqiy qadahlarga may quyib ta'zim bilan uzatsa, parhezdorlikka kim e'tibor beradiyu aql xushning ixtiyorini kim o'z qo'lida tuta oladi?!*".[18] Ba'zi o'rinlarda Navoiy o'zining yurak dardlarini ifodalashda sozandaning qo'lidagi ud cholg'usidan badiiy obraz yoki dardli holatni o'quvchiga aniq yetkazuvchi vosita sifatida foydalanadi va o'z holatini shoirona mohirlik bilan tasvirlaydi.

Uddek kuymakligim sharh et lisoni hol ila
Nag'mada uding lisonin sehri pardoz aylasang[19].

---

[17] Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". – T., 1998-y. 30-b.
[18] Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". – T., 1998-y. 30-b.
[19] Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. 20 томлик. 4-том. – Т.: "Фан" нашриёти. 1989 й. 361-б.

Darhaqiqat, ajdodlarimizning badiiy dahosi kashf etgan ulkan yutuqlarni ijrochilar tomonidan tinglovchilarga, musiqasevar xalqimizga yetkazish, uning nozik qoidalarini chuqur anglash, azaliy an'analarini saqlab qolish yo'lida ko'hna cholg'u – ud uchun maxsus qo'llanma yaratilishi ayni muddaodir. Afsonaviy bastakor, alloma Borbad Marvaziy dahosi ma'lum bo'lgan davrlarda ham bizga ayon bo'lgan ud cholg'usining ijrochilik an'analarini, qonuniyat va qoidalarini o'rganuvchi talaba-sozandalarga yo'riqnoma sifatida tayyorlar ekanmiz ular tomonidan har bir mashq, o'git va tarixiy, ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga qat'iy amal qilishlarini xohlagan bo'lar edik.

O'tmishda maqom ansambllari tomonidan maqomlar yaxlit turkum holda yoki ularning alohida-alohida cholg'u va ashula qismlari ijro etilgan. XIX asrning oxiriga kelib Buxoro Shashmaqomiga mos maqom ansambli tarkibida, odatda ikkita tanbur, dutor, qo'buz (yoki sato), doira va ikki-uch nafar hamnafas hofizlar bo'lgan. XX asrning so'nggi choragidan boshlab asta-sekin tarkibi kengayib borgan maqom ansambliga ud cholg'usi, ijroda poydevor vazifasini bajarishi maqsadida kiritilgan. Hozirgi kunda Shashmaqomning Mushkilot cholg'u bo'limining barcha kuylari, Nasr bo'limining sho'balari, shu qatorida Xorazm maqomlari, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llaridagi turkumlar ud cholg'usiga moslanib, yakka ijroda ham yangramoqda.

1.1. O'quv yili uchun dastur tanlash. Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona–Toshkent maqom cholg'u yo'llaridan birini tanlash va tanishish.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida ud cholg'usining ijro amaliyoti, ijrochilik masalalariga nisbatan aniq ma'lumotlar kam uchraydi. Turli davrlarda yaratilgan yozma adabiyot namunalari, mif va rivoyatlar, dostonlar va badiiy asarlar albatta, insoniyat hayotining badiiy tasvirlanishida musiqa san'ati ham o'ziga xos o'rinni tashkil etib kelganidan darak beradi. Bu esa qaysidir darajada musiqa cholg'ulari bilan ham bog'liqdir.

Madaniyat rivoji negizida musiqiy sozlar ham takomillashib, rivojlanib, mukammal sadolantiruvchi cholg'ular ko'rinishiga kelgan. Buning zaminida kasbiy ijod ham o'zini to'liq namoyon etganligi tarix zarvaraqlarida bitilgan. Bu borada eng avvalo afsonaviy sozanda Borbad borasida turli badiiy va musiqiy risolalarda bayon etilganligini ko'rish mumkin. Borbad zamonidan boshlab ud cholg'usida ijrochilik an'anasiga, xalq orasida alohida e'tibor qaratilgan. Deyarli, barcha Sharq xalqlari musiqiy cholg'ulari tarkibida ud va udsimon cholg'ular uchrashi kuzatiladi.

Ud va udsimon cholg'ular o'zining mukammalligi va ijroda har tomlama qulay va sof ovozining keng qamrovliligi bilan bir qator xalqlar ijrochilik amaliyotiga kirib keladi. Mazkur cholg'u turli hududlarda turfa nomlanadi. Ud va udsimon cholg'ular Yevropa musiqa san'atida "Lyutnya" deb yuritilgan va keng ommalashgan bo'lsa, Xitoy va shu hudud xalqlari orasida o'ziga xos shaklda bo'lib, "Pipa" nomida yuritilgan.

Ud cholg'usi azal-azaldan musiqa san'ati amaliyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib kelgan. Ushbu cholg'u tarixda ko'proq musiqa sohasining nazariy masalalarini idroklash va tushuntirish uchun qo'l kelgan, ehtimol. Shu sababdan Safiuddin Urmaviy o'zining advor ta'limotini ayni cholg'u misolida tushuntirishga va ushbu cholg'u uchun tabulatura usulida nota yozuvini

ixtiro qilishga muvaffaq bo'lgan edi.

Ud[20] – torli, tirnab chalinadigan cholg'ularning eng qadimiysi bo'lib, dunyodagi xalqlar orasida eng keng ommalashgan torli cholg'ulardan hisoblanadi. R.Qosimov o'zining kitobida udni quyidagicha ta'riflaydi: "Ud – arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi turlichadir. Ud – birinchidan, yog'ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to'y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan "Iyd" iborasining ma'lum shaklidir. Bu o'rinda xushchaqchaqlik kayfiyatini bag'ishlovchi soz ma'nosida ham kelishi mumkin. Udning dastlabki nomi "barbad" bo'lganligi ba'zi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Barbad ikki so'zdan iborat bo'lib, bar – qomat, bad – o'rdak ma'nolarida keladi. Barbad qorni katta va dastasi kalta musiqa asbobidir"[21]. Yozma mabalarga asoslangan ta'rif, darhaqiqat, barbad cholg'usining el orasida keng ommalashagligini namoyon qiladi.

Pipa

Pipa ijrochisi

Tarixda "Barbad" iborasi, ijrochilik amaliyotida mashhur bo'lgan. Qadimiy va afsonaviy sozanda Borbadning nomi ham aynan shu cholg'uga nisbatan taxallus sifatida qo'yilganligi kitoblarda, ayniqsa, Firdavsiyning "Shohnoma" kitobida ko'p yoritilgan.

Ijrochilik amaliyotida ud nomi bilan mashhur bo'lgan cholg'u, turli xalqlarda ham o'ziga xos shaklga ega bo'lgan va u cholg'ular udsimon cholg'ular deb yuritilgan. Ajam xalqlari – ud, Xitoyda – pipa, Ovrupada – lyutnya, arablarda esa Al-ud nomlari bilan atalib kelingan.

Sharq xalqlarida ud cholg'usining sozanda tomonidan ijro holati.

---

[20] Ud sozi xususida I.Rajabovning "Maqomlar masalasiga doir" (14-32 betlar) kitobida batafsil ma'lumotlar yoritilgan.

[21] R.Qosimov. "An'anaviy ijrochilik". T., 2007-y. 13-bet.

Cholg'u sozini ud deb atalishiga, sozning yasaladigan daraxti asos bo'lganligi kitoblarda qayd etilgani haqida aytib o'tdik. Arab mamlakatlarida o'sadigan ud daraxti xushbo'y hid taratish xususiyatiga ega bo'lgan. Ud o'tmishdan ijrochilikda keng qo'llanilgan bo'lib, XVI-XVII asrlarga kelib ud cholg'usini o'rnini boshqa cholg'ular egallaganligi sababli amaliyotda kam uchragan, deyish mumkin.

Xususan, O'zbekistonda ud cholg'u sozi, XX asrning 70-80 yillariga kelib, an'anaviy ijrochilik amaliyotida qayta tiklandi. Cholg'ular ansambli tarkibidan munosib o'rnini topdi. Yakkanavoz cholg'u sifatida ommalashishining sababi, ta'lim jarayoniga kiritilgani bo'lsa ehtimol. Ud mutaxassislarining yetishib chiqishi, xalqimiz orasida keng tarqalishiga sabab bo'ldi, deyish mumkin. Ud cholg'usi va uning ijrochiligini O'zbekistonda qayta tiklanishida Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori, ustoz va mohir sozanda Rifatilla Qosimovning xizmatlari alohida ahamiyatga sazovor ekanini ta'kidlash joiz.

Kosa qismi

Qopqoq qismi


Dasta qismi


Quloqlar


Bo'g'iz qismi

Ud cholg'usining o'ziga xosligi uning past registrdagi kuchli ovozga egaligidadir. Bunday ovoz taralishi uchun mo'ljallangan shakl muhim ahamiyatga egadir. Cholg'uning ulkan rezonatorli katta kosasi va pardalari boylanmagan qisqa dastasi mavjud. Kosa odatda, bir-biriga mutanosib holda yopishtirilgan 10-12 ga yaqin qovurg'asimon taxtachalardan tayyorlanib yasaladi va ustki qismiga qopqoq yopishtiriladi.

Qopqoqda ovoz harakatini ta'minlab beruvchi uchta teshiklar bo'lib, ular naqshlar bilan bezab yasaladi. Cholg'uning xarragi ham qopqoqqa zich holatda yopishtirib qo'yiladi.

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI
Inv. № 6696
AXBOROT RESURS MARKAZI

Cholg‘u dastasi kosaga mahkam biriktirib qo‘yiladi. Uning boshlang‘ich qismida quloqlar o‘rnatiladigan qismi mavjud bo‘lib, unda 11 ta torni tortish uchun mo‘ljallangan quloqlar joylashgan (5 tasi o‘ng va 6 tasi chap tomonida).

Qadimiy risolalarda yozilishicha ud sozi 5 juft va 1 ta toq torlardan iborat. Uning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi torlarining orasi kvarta intervaliga sozlanadi. To‘rtinchi va beshinchi, beshincha va oltinchi torlar orasi katta sekunda intervali, ya’ni 1 ton oralig‘ida sozlangan. Zamonaviy o‘zbek ud cholg‘uchiligida esa, maqom kuylarini ijro etishda qulay bo‘lishini inobatga olgan holda to‘rtinchi va beshinchi torlar oralig‘i sekundadan kvintaga o‘zgartirilgan. Ayni paytda ud cholg‘usi quyidagicha sozlanadi:



Ud sozining diapozoni 2 oktavani tashkil etadi:



Ud cholg‘usiga torlar avvallari ipdan eshilib tayyorlangan holda taqilgan. Hozirgi davrga kelib ud cholg‘usining yuqoridan 1, 2, 3-torlari sun’iy ichakdan yoki kaprondan taqiladi. 4, 5 va 6-torlar pishitilgan ipak ustidan mis sim o‘ralgan holda tayyorlanadi. Cholg‘u maxsus tayyorlangan mezrob bilan ijro etiladi:

1.2. Tanlangan asarning audio va video yozuvlari bilan tanishish.

Mumtoz maqom san'atidagi musiqiy namunalar oddiydan murakkablik tomon tamoyili asosida tartiblashtirilgan ekan, ijrochi-talabaga muayyan asar tanlab berishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratmoq lozim:

1. Sozanda-talabaning mavjud imkoniyatlari;
2. Musiqiy asar ijrosining qiyinlik darajasi;
3. Sozanda-talabaning ijrochilik imkoniyatlari musiqiy asar ijrosining qiyinchilik darajasiga mutanosib bo'lishligi;
4. Musiqiy asarning falsafiy va g'oyaviy mazmuni.

Yuqoridagi jihatlardan kelib chiqib tanlangan musiqiy asar haqidagi mavjud ma'lumotlar jamlanishi lozim. Ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda talaba-sozanda yig'ilgan ma'lumotlarni ustozi boshchiligida tahlil etishi va o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insoniyatning nafosatli va go'zal hayotini ohanglarda aks ettirishning o'z mushkulliklari mavjud. Avvalo insonning o'z iste'dodi bo'lsa, ikkichisi uning xohishidir. Uchinchi tomoni kasbga bo'lgan munosabatning shakllanishi va bu kasbga mehr qo'yilishidir. Eng muhimi uni sevib, ardoqlar ila hayotining mazmuniga aylantirishi bilan bog'liqdir. Bu bilan shug'ullanish esa, pirovardida ruhiyat ozig'iga aylanadigan sehrli ohanglarni tarannum etuvchi namoyanda bo'lib yetishish bilan izohlanadi. Uning bir umr chekkan barcha mushkulliklarini hayot mazmuniga aylantiradi. Ularning ijodi esa insoniyat ma'naviyati, ruhiyati uchun xizmat qiluvchi musiqiy merosga aylanadi.

Musiqaning go'zalligi va mukammalligi bir qator omillar bilan bog'liqdir. Ohangni sirli, go'zal va maftunkor shakl topishida bu omillarning barchasi muhimdir. Musiqa sadolarini jonlantirgan ijro haqiqiy "samo" ekanligini namoyon eta bilish kerak. Sozandaning cholg'usi va uning ijrosining mukammalligi, uning har tomonlama mohirligi, bilimliligidan dalolat berib turadi. O'zbek musiqa merosimizda ana shunday mazmunli yashab, ijod etgan namoyandalar talaygina. To'xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G'anijon Toshmatov, Ahmadjon Umrzoqov, Ashurali Yusupov, Usta Ro'zimat Isaboyev,

Rizqi Rajabiy, Faxriddin Sodiqov, Muhammadjon Mirzayevlar shular jumlasidandir. Ana shunday mohir ustoz sozandalarning ijodiy kamoloti bilan mumtoz va xalq musiqiy merosi kamol topib, rivojlanib kelayotganligini qayd etib o'tish lozim.

Yuqoridagi fikrlarni chuqur anglagan holda, tanlab olingan musiqiy asarni mavjud barcha ijro yozuvlari (audio va video formatda) jamlanishi tavsiya etiladi. Manbalarning qo'l ostida doimo bo'lishi talabaning o'zlashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir etadi. Bunda iloji boricha katta ustoz ijrochilardan musiqiy asarning asl variantini tanlab, tinglash va o'rganishga e'tibor qaratish zarur.

O'zbek xalq musiqa ijrochilik amaliyotida, o'z faoliyati va barakali ijodi bilan xalqimiz nazariga tushgan sozandalar bir qaraganda ko'pga o'xshab ko'rinadi. Lekin, xalq va mumtoz ijrochilik an'analarini saqlovchilar, o'z ijodi bilan milliy an'analarni davom ettirishga, ularning negizida o'z ijro uslubini shakllantirishga va oxir oqibat, o'zining ketidan keladigan avlodlarni ergashtirish xususiyatiga ega bo'lgan san'atkorlar darhaqiqat sanoqlidir. Ijrochilik amaliyotida ularning har birini o'z o'rni, amaliyotda erishgan ijro uslubi, musiqa merosimizga qaysidir o'rinda qo'shgan hissasi mavjud. Shuning uchun bo'lsa kerak, musiqa san'atimizning fidoyi ijodkorlari doimo xalqimiz tomonidan e'zozlanib, ularning yaratgan ijro uslublari ustoz-shogird an'analari negizida yashab, rivojlanib boraveradi.

1.3. Asarning usulini tahlil qilib o'rganish.

Maqom ijrochiligida hamisha 2 qat'iy qoidaga amal qilish talab etiladi:

1. Lad-parda qonuniyatlaridan chetlashmaslik;
2. Usulni nozik his etish.

Shashmaqom majmuasida har bir maqom turkumi 2 bo'limdan tarkib topgan bo'lib, bular:

1. Mushkilot;
2. Nasr.

Har bir maqom ijrochisi ushbu bo'limlar tarkibidagi cholg'u qismlari, sho'balar va shoxobchalarning usul tartibi bilan tanish bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda quyida maqom usullari jadvalini keltiramiz:

Usul nomi	Nota yozuvidagi ifodasi
Tasnif	bak bak bum bum bak bum
Tarje	bak bak bum bum bak bum
Gardun	ba ka bak bak ba ka bum bak bum
Muxammas	bum ba ka bak bak bum bak bum bak bum bum bak ba ka ba ka bum bak ba ka ba ka bum bum bak bak bak bak bak

Saqil	bum ba ka ba ka bum ba ka ba ka bak bak bum ba ka ba ka bum bak bak bum bum bak bum bak bak bak bak bak bak ba ka bum bak bum bak ba ka bum bak bum
Saraxbor	bak bum
Talqin	bum bak bum ba ka
Talqincha	bum bak bum bak bak
Nasr	ba ka bum bak bum bak bak
Ufor	bum ba ka bum bak bum ba ka bum bak
Savt	bak bak bak ba ka ba ka bak bum
Mo‘g‘ulcha	bak bak bak ba ka ba ka bak bum
Qashqarcha	bum ba ka bum bak bum
Soqiynoma	ba ka ba ka bum bum bak ba ka bum bum

1.4. Tanlangan cholg'u yo'lini nota matnlariga qarab tahlil qilib o'rganish.

Maqom allomasi, mumtoz maqom san'ati xazinaboni, O'zbekiston xalq artisti, akademik Yunus Rajabiy o'zbek milliy musiqasining xalq va mumtoz namunalarini yig'ib terish borasida ulkan muvafaqqiyatlarga erishgani barchamizga ma'lum. Taniqli sozanda va xonanda, mahoratli bastakor Yunus Rajabiy tomonidan yozib olingan "O'zbek xalq muzikasi" to'plamlarining I-V jildlari[22] hamda "Shashmaqom" to'plamining I-VI jildlari[23] orqali xalq yoki mumtoz musiqa namunasining xoh cholg'u, xoh ashula yo'lining nota namunasini olib, audio yozuv bilan birgalikda tinglab, tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mushkilot va Nasr bo'limlari qismlarini tahlil etishda shakl tuzilishi jihatidan qonuniyatlarini yaxshi tushunib olmoq darkor. Cholg'u qismlarida xona va bozgo'y tuzilish asoslari ishlasa, ashula yo'llarida sho'ba shakli qonuniyatlariga asosan tahlil etish talab etiladi.

Bunda xona – doimiy yangilanib boruvchi kuy tuzilmasi hisoblanadi. Forschadan "manzil", "joy" ma'nolarini anglatuvchi xona – cholg'u kuyini rivojlantiruvchi musiqiy tuzilmadir. Forschadan "qaytarish", "takrorlash" ma'nolarini anglatuvchi bozgo'y esa asosiy kuy mavzusini muntazam takrorlab, eslatib turuvchi kuy tuzilmasidir. Bunda Tasnifi Buzruk kuyi misolida quyidagicha sxema orqali tahlil etish cholg'u kuyi tuzilishini anglashni osonlashtiradi:

$$B\ X_1\ B\ X_2\ B\ X_3\ B\ X_4\ B\ X_5\ B\ X_6\ B\ X_7\ B\ X_8\ B$$

Nasr bo'limi sho'balari esa cholg'u muqaddima, daromad, miyonxat, dunasr, avj va yoki namud, furovard va suporish ketma-ketligidagi tuzilmalardan iborat. Daromad – kirish, miyonxat – o'rta xat, dunasr – ikkinchi g'alaba, avj – cho'qqi, namud – ko'rinish, furovard – tushirim ma'nolarini anglatadi. Atab qo'yilgan nomiga mos ravishda ushbu tuzilmalar ashula yo'li rivojini anglatadi.

Istalgan maqom namunasini tahlil etish lozim bo'lsa, yuqoridagi qoidalar asosida shakl tuzilishi aniqlanadi. Lad-parda tuzilishi va usuli aniqlangandan so'ng musiqiy asarni ijro etganda o'ziga xos ohanglar jarang sochishi kuzatiladi.

---

[22] Ю.Ражабий. Ўзбек халқ музикаси. I-V томлар. – Т., 1955-1959 й.

[23] Шашмақом. Нотага ёзиб олувчи Ю.Ражабий. I-VI томлар. – Т., 1966-1975 й.

1.5. Asarning melizmatikasi. (cholg‘uga mos bezaklar, shtrixlar) ustida ishlash

Melizmlar (yun. melisma – qo‘shiq, kuy), ornamentika, musiqa bezaklari – vokal va cholg‘u musiqada muayyan shaklga ega (masalan, trel, forshlag, girift, kashish va boshqalar) yoki erkin tarzda ijro etiladigan (passaj, fioritura, qochirim, pola, molish) barcha ohang bezaklari, kuyning asosiy pog‘onalarini o‘zgartiradigan qo‘shimcha tovushlar hisoblanadi. Melizmlar kuy ohangdorligini, ta’sirchanligini oshiruvchi, ko‘proq lirik mazmunni boyituvchi vositalar sifatida musiqa san’atiga keng joriy etilmoqda. Melizmlar xalq musiqa ijodiyoti va ijrochiligi, xususan, badiha san’ati, bastakorlik hamda kompozitorlik ijodiyotida uzoq o‘tmishdan davom etib kelayotgan an’analarning mahsulidir. Melizmlarga oid ma’lumotlar O‘rta asr Sharq musiqa risolalarida o‘z aksini topgan: Mahmud ash-Sheroziy (13-asr) sozlarda ijro etish uslublari borasida fikr yuritib, sozandalar kuylarni bezaklar bilan boyitishi lozimligini ta’kidlagan, Jomiy esa kuy bezaklarida malaka hosil qilish ijrochining o‘ziga bog‘liqligini uqtirgan va o‘z zamonasi amaliyotidan misollar keltirgan.

Melizmlarning nota yozuvidagi ifodasi XV-XVI asrlarda Germaniyada paydo bo‘lib, Yevropada, ayniqsa, XVII-XVIII asrlar (Fransiya, Angliya va boshqalar)da keng rivoj topdi va o‘zining muayyan shakllariga ega bo‘lgan edi.

Har bir xalq musiqasidagi melizmlar o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega. O‘zbek milliy ijrochiligida qochirim, nola, nolish, xonish, kashish kabi melizmlar mavjud. Ulardan torli (tanbur, dutor, g‘ijjak, sato kabi) va puflama (nay, surnay, qo‘shnay, bo‘lamon) musiqa cholg‘ulari va ayniqsa, xonandalikda keng foydalaniladi.

Tanlangan musiqiy asarning melizmatikasi (bezak va shtrixlari) ustida ishlash ustoz-shogird an’anasiga asosan og‘zaki tarzda o‘rgatiladi. O‘zbek mumtoz musiqasida og‘zaki an’ana asosiy o‘rin tutib, ko‘plab ustozlar qimmatli bilimlarni yoddan bilganlari tarixiy an’ana hisoblanadi.

1.6. Asarning dinamikasi ustida ishlash.

Dinamika – grekcha *"dinamikos"* – kuchga oid, kuchli degan ma'nolarni anglatuvchi atama hisoblanadi. Muayyan asarning nota yozuvida va bevosita uni ijro etishda tovushlar sadolanishi kuchi (baland-pastligi)ning o'zgaruvchanligi, shu o'zgaruvchanlikni ifodalovchi belgilar majmui hamda mazkur jarayonni o'rganuvchi ta'limotga dinamika deb ataladi.

Dinamika musiqiy ifodaning muhim vositalaridan bo'lib, xalq va professional ijod hamda ijrochilikda qadimdan qo'llanilib kelingan. Dinamika atamasi ilk bor shveytsar musiqa o'qituvchisi X.Negeli tomonidan 1810-yilda joriy etilgan degan taxmin bor.

p *(piano)* – mayin, kuchsiz, yumshoq;

pp *(pianissimo)* – juda mayin, juda kuchsiz;

f *(forte)* – qattiq, kuchli;

ff *(fortessimo)* – juda qattiq, juda kuchli;

mf *(messo forte)* – qattiqroq, kuchliroq.

Shu bilan birga, muayyan dinamikadan boshqasiga asta-sekin o'tib boruvchi (sadoning kuchayishi – crescendo, sadoning pasayishi – diminuendo) turlari ham joriy etilgan. Ijodiy amaliyotda butun bir asarni muayyan dinamika xususiyatlariga izchil tayanib yaratish misollari ko'plab uchraydi.

Tasnifi va Tarjei Dugoh

Tasnifi Dugoh kuyi Dugoh maqomi cholg‘u yo‘llarining bosh mavzusi sanalib, o‘zidan keyin ijro etiluvchi kuy va ashula yo‘llarining mazmunini aks ettiradi. “Tasnif” so‘zi –ijod etildan, mukammal asar; “Tarje” esa – qaytarish, takrorlash (Tasnifning doyra usuli takrorlanadi) kabi ma’nolarni bildiradi. Garchand maqom cholg‘u kuylarining nomlari serjihat ma’nolar kasb etsa-da, ammo ularning deyarli barchasi eng avvalo, doira usullarini anglatishini unutmaslik lozim. Odatda, Tasnifning kuy mavzusi kichik hajmda, ammo nisbiy tugal shaklda bayon etiladi. Tarjelar haqida musiqashunos olim O.Ibrohimov “Tasnif”larning kuy-mavzuyi turkum miqyosida yangi “sinov” mushkilotlaridan o‘tadi, taraqqiyot ifodasi bo‘lgan ohang va o‘lchov-ritm o‘zgarishlariga uchraydi. Bu o‘zgarishlar dastlab “Mushkilot” bo‘limidagi ikkinchi qism – “Tarje” nomli kuylarda o‘z aksini topadi”[24], deb yozadi. Tasnif va Tarje kuylarining tuzilishi umuman maqomlarga xos kuy qiyofasida bo‘lib, xona va bozgo‘ylar bilan rivojlanib boradi. Mazkur kuylarning xonalarida ayniqsa, peshrav ohanglari ko‘plab uchraydi. Jozibali, ta’sirchan va dilkash, ifoda vositalariga boy bo‘lgan Tasnif va Tarjei Dugoh kuylarini go‘yoki inson bilan suhbatlashayotgek, dardlashib, hasratlashayotgandek tuyulishi haqida ustozlar ta’kidlashadi. Tasnif yo‘llari kishiga umid, ko‘tarinki ruh baxsh etuvchi kuy uo‘llari bo‘lsa, Tarjelar tantana, shodiyona kayfiyatlarni ifodalaydi. Kuy mavzusi Tasnifdan keyingi Tarje, Gardun, Samoiy, Muxammas kabi qismlarda rivojlantiriladi. Dugoh maqomining cholg‘u yo‘llari kuy tuzulishi jihatidan mukammal asarlar bo‘lib, ular badiiy bo‘yoqlarga juda boydir.

---

[24] Ibrohimov O. Maqom asoslari. – T., 2018-y. 45-b.

Tasnifi dugoh

Dugoh maqomidan









Tarjei dugoh

M.M. ♩ = 72

Dugoh maqomidan


1.
2.
1.
2.



Samoiy Dugoh

Dugoh maqomining Mushkilot bo'limida Tasnifi Dugoh, Tarjei Dugoh, Garduni Dugoh, Peshravi Dugoh kabi kuylardan so'ng noasosiy bo'lgan – Samoyi Dugoh nomli kuy yo'li keladi. Cholg'u bo'limidagi kuy yo'llari ko'pincha shu doyra usullarining nomi bilan atalishini qayd etgan edik. Samoiy ham avvalo shu nomli doyra usulini anglatadi. Uning usuli sakkiz taktli bo'lib, 2/4 o'lchovdadir. Samoyi Dugohning tuzilishi o'zidan oldin keluvchi Peshravi Dugohgaga yaqindir. Bozgo'ylar va xonalarning hajmi teng. Samoyi Dugoh juda ko'plab cholg'ularda, ayniqsa surnayda maqom turkumlaridan ajratilgan holda yakka tarzda juda ko'p ijro etib kelingan mashhur kuy yo'llaridan hisoblanadi. Uning ufar usulidagi variant ham keng tarqalgan. Biz quyida ud soziga moslangan Samoyi Dugohni keltiramiz.

Samoyi dugoh

M.M. ♩ = 72

Dugoh maqomidan





Muxammasi Nasrulloiy

Muxammasi Nasrulloiy Buzruk maqomining tarkibida uchraydi. Muxammas – "beshlangan", "beshlik", ma'nolarini anglatib, bu nom juda qadim zamonlardan ma'lumligi aytiladi. I.Rajabovning xabar berishicha, "dastlab bu ibora bilan doyra usulining bir turi, she'riyatda esa besh misradan tuziladigan she'r shakli ifodalangan"[25]. Muxammaslarda bir-biriga o'xshagan unsurlar ko'plab uchraydi. Bunda u yoki bu kuy bo'lagi turli maqomlarning ruhiga moslashtirib olinadi. Muxammasi Nasrulloiyning xonalarida Muxammasi Ushshoqning boshlanishidagi xonaning ma'lum unsurlari va variantlarini uchratish mumkin. Bu hol Muxammasi Nasrulloiyning badiiy-estetik qiymatini kamaytirmaydi, balki turli cholg'u yo'llarida o'rniga qarab, ukarning tarkibiy unsurlarini turli-tumanligi, originalligini saqlagan holda rang-barangligini ta'minlaydi, kuyning tugallangan shaklga kelishiga yordam beradi. Muxammasi Nasrulloiydagi Nasrullo so'zi uning bastakori ekanligini, ma'lum kuy yo'lini Muxammas doyra usuliga tushirib, bastalagan ijodkor-sozanda ekanligini bildiradi.

Muxammaslar boshqa kuy yo'llariga nisbatan tuzilishi, doyra usuli jihatidan murakkab bo'lsada, biroq jozibadorligi, hissiy jihatdan ta'sirchanligi, ularning murakkab qiyofasiga qaramay tinglovchiga oson yetib boradi. Shuning uchun ham Muxammaslar boshqa kuylarga nisbatan ko'p uchraydi, bastakorlarni o'ziga jalb qilib kelgan.

---

[25]И.Ражабов. Мақомлар. – Т. 2006-й. 176-б.

Muxammasi Nasrulloiy

Buzruk maqomidan




f
p
ff
mf
f

Tasnifi va Tarjei Navo

Navo – Shashmaqomning uchinchi maqomi bo'lib, "kuy", "ohang" ma'nolarini anglatadi. Yuqorida zikr etilganidek, Tasnifi Navo kuyi ushbu maqomning bosh kuyi hisoblanib, asosiy mavzu aynan shu qismda namoyon etiladi. Navo maqomining cholg'u kuylari ohang jihatidan bir-biridan farq qiladi. Tasnifi Navoni tinglar ekanmiz, uni nikoh to'yi marosimlarida surnayda chalinadigan kuylarni yodga solishini kuzatamiz. Shuningdek, u kishida to'y-hashamlarda hosil bo'ladigan kayfiyatni uyg'otadi. Tasnifi Navoning usuli va ijrosini biroz tezlashtirib, karnay va surnay cholg'ularida ijro etilsa, surnay kuylaridek sadolanadi. Shuning uchun Tasnifi Navo va boshqa kuylar asosida anchagina surnay kuylari yaratilgan bo'lib, ular "Surnay Navo yo'llari" deb yuritiladi.

Tasnifi Navo kuyi ohangdor, insonda nozik his-tuyg'ular uyg'otadigan ta'sirli kuylardan biridir. Navo maqomining keyingi kuylarida Tasnifning lad-parda tizimi, asosiy kuy yo'li, maqomga xos ruhiy holat barcha cholg'u yo'llari bo'ylab saqlanib qoladi. Ular bir-biriga juda chiroyli bog'langanligidan alohida ijro etilganda uzilib qolgandek bo'ladi. Navo maqomining deyarli barcha kuy yo'llari parda lad tizimi ud sozining sozlanishiga juda chiroyli mos keladi. Shuning uchun ham Mazkur maqomning Tasnifidan Saqiligacha ud soziga moslab notaga tushirib, taqdim qilishga qaror qildik.

Tasnifi Navo




56
X xona
62
XI xona
68
XII xona
XIII xona
74
Bozgo'y
80
XIV xona

Tarjeyi Navo

♩ = 83

I xona

♩ = 83

7

13 Bozgo'y

19 II xona

25 Bozgo'y

31

37 III xona

43 Bozgo'y


56
X xona
62
XI xona
68
XII xona
XIII xona
74
Bozgo'y
80
XIV xona

Garduni Navo



Muxammasi Navo

M.M.♩=60
1 xona

Navo maqomidan




2 xona
3 xona
Bozgo'y


4 xona
5 xona


6 xona
7 xona
Bozgo'y

8 xona







9 xona







Bozgo'y









Muhammasi Husayniy

M.M.♩=58

1 xona

Navo maqomidan





2 xona







Bozgo'y









3 xona




Bozgo'y

XORAZM MAQOMLARI

Hafifi Segoh

Hafifi Segoh – Xorazm maqomlari tarkibiga kiruvchi chuqur falsafiy mazmunli kuy bo'lib, Segoh maqomining bir bo'lagi sifatida tanilgan. Uning ohanglari murakkab pardalardan iborat bo'lib, ijrochidan yuqori mahorat talab etadi. Kuy o'zining sokin va jo'shqin qismlarining uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Nomi va kelib chiqishi "Hafifi" so'zi "nozik" yoki "yengil" degan ma'noni anglatadi. "Segoh" esa musiqiy pardaning nomi bo'lib, ushbu kuy Segoh pardasiga asoslanib ijro etiladi. Bu kuyning nozik tuzilishi va hissiyotga boyligi tufayli unga "Hafifi Segoh" nomi berilgan.

O'ziga xos jihatlari

1. Tuzilishi: Kuy asta-sekinlik bilan rivojlanuvchi nozik ohanglardan boshlanadi va jo'shqin ritmlarga o'tadi.

2. Ijro uslubi: Hafifi Segoh asosan tanbur, dutor yoki rubobda ijro etiladi. Ijrochidan nozik pardalarni yuqori darajada his qilish talab etiladi.

3. Ruhiy ta'siri: Kuy tinglovchiga chuqur falsafiy kayfiyat bag'ishlaydi va o'ziga xos ruhiy tasalli beradi.

Tarixiy ahamiyati

Hafifi Segoh qadimdan san'at ixlosmandlari orasida mashhur bo'lgan. U xalq musiqasida Sharq falsafasining ifodasi sifatida qadrlangan.

Hafifi segoh

Xorazm xalq kuyi

Muhammad Otajonov notalashtirgan




41
45
49
53
57
61
65
69
73
77
81


85
89
93
96
100
104
108
112
117
121
125


129
134
139
144
149
154
159
164
169
174
179



Qal'a bandi

Qal'a bandi – Xorazmning xalq musiqasi merosiga mansub bo'lib, surnay va do'llar bilan ijro etiladigan qudratli kuy. U ko'pincha yirik bayramlar, ayniqsa Navro'z va hayit tantanalarining tantanali ochilish qismida ijro etilgan. Nomi va ma'nosi "Qal'a bandi" so'zi Xorazmdagi qadimiy qal'alar va ularning mustahkamligi bilan bog'liq. Bu kuy Xorazmning qadimiy qal'alari sharafiga bag'ishlab yaratilgan.

O'ziga xos jihatlari

1. Tuzilishi: Kuy qudratli va hayajonli ohanglarga asoslangan. U ko'proq tantanavor ruh bag'ishlaydi.

2. Ijro vositalari: Asosan surnay va do'llar bilan ijro etiladi. Kuy boshlanishida baland ohangli surnay ovozi diqqatni tortadi.

3. Ruhiy ta'siri: Bu kuy tinglovchilarni ruhlantirib, bayramona kayfiyat bag'ishlaydi.

Tarixiy o'rni

Qal'a bandi asosan xalq yig'inlarida, ayniqsa, Qal'a darvozalarining ochilishida ijro etilgan va bugungi kunda ham madaniy tadbirlarda o'z o'rnini saqlab qolgan.

Qalla bandi

Xorazm xalq kuyi




35
38
42
45
48
51
54
57
60
64
68


71
75
79
82
85
88
93
99
105
110
115


120
124
129
134
139
144
149
153
158
163
168


173
178
183
187
192
197
202
206
209
tr
213 (tr)
215
molto rit.
tr

Ilg‘or

Ilg‘or – Xorazm xalq musiqasi va dostonchilik san’atining yorqin namunasidir. Bu kuy ko‘pincha dostonlarning boshlanishida ijro etilib, tinglovchilarni doston voqealariga tayyorlashga xizmat qiladi.

O‘ziga xos jihatlari

1. Ohanglar tuzilishi: Kuy jo‘shqin va ruhlantiruvchi ohanglarga asoslangan.

2. Ijro vositalari: Dutor va tanburda ijro etiladi. Ijrochidan nafislik va his-tuyg‘ularni yuqori darajada yetkazish talab qilinadi.

3. Sarparda tushunchasi: “Sarparda” kuyning ijro etiladigan parda darajasini anglatadi va kuyning o‘ziga xos ijro uslubini belgilaydi.

Madaniy o‘rni

Ilg‘or kuyi Xorazmning dostonchilik san’atida kirish ohangi sifatida katta ahamiyatga ega. U bugungi kunda ham xalq musiqiy kechalarida ijro etilib, yangi avlodga o‘rgatilmoqda.

Ilg‘or

Allegro




47
52
56
60
64
68
72
76
80
84
89



Ali Qambar

Ali Qambar – Xorazm xalq musiqasining qadimiy kuylaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi Hazrat Alining sodiq otboqari Qambar bilan bog'lanadi.

Rivoyatga ko'ra kelib chiqishi

Qambar Hazrat Alining otboqari bo'lib, nafaqat otlarga, balki musiqaga ham qiziqqan mohir sozanda edi. Rivoyatlarga ko'ra, Qambar o'zining fidoyiligi va sadoqatini musiqiy kuy orqali ifoda qilgan. Shu sababdan bu kuy "Ali Qambar" nomi bilan atalgan.

O'ziga xosligi

1. Mazmuni: Kuy sadoqat va muhabbatni madh etuvchi ohanglarga asoslangan.

2. Ijro uslubi: Asosan dutor va tanburda ijro etiladi, lekin doira va surnay ham qo'shilishi mumkin.

3. Ruhiy ta'siri: Bu kuy tinglovchilarni chuqur hayratga solib, ma'naviy tasalli beradi.

Tarixiy ahamiyati

Kuy Xorazm madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat musiqiy asar, balki insoniy qadriyatlarning musiqiy ifodasi sifatida qabul qilinadi.

Ali Kambar

Xorazm xalq kuyi




47
51
55
58
60
64
68
72
77
81
85


89
93
97
101
104
108
113
118
123
126
rit.

FARG‘ONA-TOSHKENT MAQOMLARI

Nasri segoh

Allegretto

O'zbek xalq kuyi




f


ff
f
mf

Navro'zi ajam

O'zbek xalq kuyi









II BOB. O'ZBEK XALQ KUYI VA BASTAKORLAR IJODI

O'zbek musiqasi 2 qatlamdan iborat bo'lib, bular:

1. Xalq musiqasi;
2. Kasbiy musiqa.

Xalq musiqasi kuy, qo'shiq, ashula, yalla, lapar, terma kabi musiqiy janrlardan tarkib topgan bo'lsa, kasbiy musiqa maqom, doston, katta ashula, bastakorlik va kompozitorlik ijodiga bo'linadi.

Xalq musiqasi fanda musiqiy folklor atamasi bilan atalib, ushbu tushunchani 1846-yilda ingliz etnograf olimi William Thoms joriy etgan. Xalq musiqasi namunalari kasbiy musiqa namunalaridan ijrochi va tinglovchi nuqtayi nazaridan qiyinlik darajasi bilan farqlanadi. Xalq musiqa namunalari xalqchil va ommabopligi, ijro uchun nisbatan osonligi, tushunarliligi va sodda shakl tuzilishi bilan xarakterlanadi. Kasbiy musiqa esa buning aksi bo'lib, uni ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim, malaka va ko'nikmalar talab etishi bilan farqlanadi.

Kasbiy musiqa namunalari bizning davrga qadar ustoz-shogird an'anasi asosida avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib, yetib kelgan. Ustoz-shogird usuli, Sharq cholg'u ijrochiligi madaniyatining azaldan shakllangan ta'lim asosidir. Musiqa sohasining qaysi bir yo'nalishini olmang, uning ta'lim jarayoni ustoz-shogirdlik asosida amalga oshirilib kelinganligini guvohi bo'lasiz. Xonandalik, sozandalik sohalarining og'zaki an'anaga xos tartibda boshlanganligi va avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotganligi bunga yorqin misoldir.

O'zbek musiqa merosi og'zaki an'anadagi musiqa, deb kelinganligining o'zida ustoz-shogirdlik an'anasi namoyon bo'lib turadi. Sharq xalqlarining barchasi ham ustoz-shogirdlik an'anasining negizida og'zakilik mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Ustoz-shogirdlik jarayoni ham qadimdan shakllangan va o'zining kasbiylik jihatlarida yuzaga kelgan bir qator qoidalar, usul va uslublari mavjuddir. Ularning tabiiy jarayonga asoslanishi hamda ustozlikka xos xususiyatlar kasb etishi muqarrardir.

An'anaviy cholg'u ijrochiligi san'atida xalq musiqasi, bastakorlik ijodi va o'zbek maqomlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonini quyidagicha tashkil etish

maqsadga muvofiqdir:

- o'zbek xalq musiqasi va maqomlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirish jarayonida ud ijrochiligi mashg'ulotlarida nazariy va amaliy bilim hamda tajribalardan foydalanish;

- o'zbek maqomlari va xalq yoki bastakorlik musiqasining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochish hamda namunalarni tanlashda ularni axloqiy-estetik tomonlarini e'tiborga olish, bastakorlik ijodi namunalari, o'zbek maqom san'ati hamda xalq musiqasining musiqiy ohangdorligi va uning ta'lim oluvchilar tomonidan idrok qilinishiga e'tibor qaratish;

- musiqa cholg'ulari ijrochiligida xalq, bastakorlik va o'zbek maqomlarini ijro eta olish ko'nikmalarini takomillashtirish;

- cholg'u ijrochiligi sinfi mashg'ulotlarida bastakorlik ijodi, maqom san'ati, xalq qo'shiqlarini ijro qilish uslubi haqida ta'lim oluvchilarga nazariy ma'lumotlar berish;

- ta'lim oluvchilarni estetik tarbiyalash maqsadida ularni musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish. Estetik did va idrok kabi sifatlarini shakllantirish.

Ma'lumki, cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri, ta'lim oluvchilarga ta'lim jarayonida ijro texnikasini o'rgatish, musiqiy asarlarni idrok etishlariga ko'maklashish, musiqiy bilim berish bilan bir qatorda, ularda musiqiy asarlardan zavqlanish, estetik idrok qilish malakalarini tarkib toptirishdan iborat.

O'zbek maqom san'ati, bastakorlik ijodi hamda xalq musiqasini o'rganish hamda cholg'u ijrochiligida chalish jarayonida ta'lim oluvchilaring mustaqil ta'limini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning o'qish faoliyatini takomillashtirish bilan birga ma'naviy-estetik tarbiya sohasida ham qator ishlarni bajarish talab etilmoqda. Bundan tashqari mustaqil ta'lim tashkil qilinib, o'rgatadigan musiqiy bilim mustahkamlanadi. Chunki, o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalash vositasi va shakllari qanchalik rang-barang bo'lsa, shuncha yaxshi samara beradi.

2.1. O‘zbek xalq kuylari va bastakorlar ijodiga mansub kuylardan tanlash va tanishish

Tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, asosan ijrochilik mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilar o‘zbek xalq maqomlari namunalari bilan bir qatorda xalq qo‘shiqlari va kuylarini ham o‘rganadilar, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va farqlarni anglashga harakat qiladilar. Natijada, ular e’tiboriga havola qilinayotgan maqom namunalari va xalq qo‘shiqlarining o‘zigagina xos bo‘lgan tomonlarini ajrata oladilar, ularning o‘zaro o‘xshash va farqlari, umumiy tomonlarini guruhlash, taqqoslash kabilardan foydalanib xulosalar chiqaradilar. Shuning uchun ham xalq qo‘shiqlari qadimdan shakllangani bois ularga nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo‘lmagan bir vaqtda yaratilgan va ustoz-shogird an’analari asosida bizgacha yetib kelgan asarlar tanlab beriladi.

Bugungi kunda ud ijrochiligi mashg‘ulotlarining tashkil etilishiga jiddiy e’tibor qaratilishi zarur. Bu o‘rinda quyidagi holatlarni inobatga olish talab etiladi:

1. O‘zbek xalq musiqasi va maqomlari yoki bastakorlar ijodi vositasida ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashda ijro etish yo‘llarini, ijro usullari va imkoniyatlarini aniqlash;

2. Har bir maqom yoki xalq musiqasi namunasi, bastakorlar ijodining ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashdagi mohiyatini tushunish, ularni puxta o‘zlashtirishga imkon beruvchi o‘quv materiallarini oldindan berish;

3. Xalq musiqa, maqom namunalari va bastakorlar ijodining ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashdagi ahamiyati va maqsadini aniq belgilash;

4. Ud ijrochiligi mashg‘ulotlarida xalq, maqom va bastakorlar ijod namunalarini o‘rgatish jarayonida ta’lim oluvchilarga shu kabi ijro etish uslubi, ovoz tembri jarangdorligini ta’minlashga xizmat qiladigan qat’iy tartibga amal qilishlarini ta’minlash.

Ud ijrochiligi mashg‘ulotlarida ustozlar ijro uslublaridan foydalanish orqali ta’lim oluvchilarni estetik tarbiyalashning shakl vositalari va usullari yordamida tashkil etishda o‘qituvchilarning chuqur

mutaxassislik bilimlari, shuningdek, yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, o'qituvchi faoliyati va tajribalarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ularning aksariyati o'zbek xalq, maqom va bastakorlik ijodi namunalarini nazariy jihatdan yetarli bilmaydilar. Shuning uchun ham ularni ijro uslublarida kamtikliklar namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim oluvchilarga har bir hududning musiqiy ohangi, jozibadorligi, ritmlari va ularning o'zaro farqlanishi, musiqa asboblarining o'rni va ahamiyati, liboslar va kiyinish madaniyati bilan farq qilinishini o'rgatish zarur.

Maqomlar vositasida o'quvchi-yoshlarni ijro mahoratini shakllantirishning shakl, vosita va usullari, an'anaviy cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida amal qilib kelayotgan tizimning ajralmas qismi bo'lib xizmat qiladi.

2.2. Tanlangan asarlarni ustozlar ijrosidagi audio va video yozuvlardan eshitib tahlil qilish

Maqom ijrochilining o'ziga xos jihatlaridan biri, maqom sozanda va xonandalarining ustozlik darajasini egallashlari, ustozlar ijrolarini egallab o'z ijro uslublarini yaratishlari, an'anaga mos holatda shogirdlarni tarbiyalashlari va pirovardida ijro maktabini davomchilarini shakllatirishlaridir. Maqom ijrochiligi san'atida yakkanavoz cholg'u ijrochilari va xonandalari hamda maqom ansambllari ijrochilik amaliyotida bunday holatlar yuzaga kelgandir. Hattoki, Respublikamizda mavjud vohalardagi ustozlar va ansambllarning o'z ijro uslublari amaliyotda mavjudligini aytish mumkin.

Buni albatta o'z qoidalari va amal qilinishi lozim bo'lgan jarayonlari amaliyotda shakllangan. Bu borada R.Qosimov o'z kitobida quyidagicha yozadi: "O'zbek va tojik xalqlarining yirik shakldagi musiqa meroslari turli yo'l (variant)larda ijro etib kelingan. Ma'lumki, har bir maqomdon ustozlarni o'z ijro uslublari, imkoniyatlari, qolaversa maktablari bo'lgan. O'tmishda har bir maqomdon hofizlar, sozandalar o'zlarining shogirdlariga musiqa merosini o'rgatishda o'z uslublari va tajribalariga tayanganlar. Masalan, Buxoroda maqomlarni ustozlar avvaliga shogirdlari qo'liga doyra tutqazib, o'z ijrosiga (xonandalarga) o'zi usul berish yo'li bilan o'rgata boshlaganlar. Ularning maqsadlari maqom, umuman an'anaviy ijrochilikdagi oddiy va murakkab usullarni puxta o'rgatish bilan birga xonishiga o'zi usul bera oladigan iste'dodli xonandalarni tarbiyalash bo'lgan. Ayniqsa, murakkab hisoblanmish "Talqin" 3/8, 3/4; "Savt" 5/4 (3/4 + 2/4); "Mo'g'ulcha" 5/4 (3/4 + 2/4); "Ufarlar" 3/4, 6/8 va boshqa usullarda aytiladigan ashulalar ijrochidan yuksak idrok, qobiliyat va mahorat talab etadi"[26].

Sozandalarni ushbu uslubda tarbiyalash an'anaviy musiqa ta'limining asosi sifatida muhim ahamiyatli ekanligini qayd etish lozimdir. Ijro uslublarning shogirdlar tomonidan davom ettirilishida, ustozlarning ijro texnikalari, holatlari, zarblari va qo'llaniladigan turli bezaklarini, harakatlaridagi mutanosiblik ustoz-shogirdga xos bo'lishi bilan izohlanadi. Avvalo har bir sozanda o'z ustozining ijro uslublarida

[26] R.Qosimov, "An'anaviy ijrochilik", T., 2007 y. 15 b.

tarbiyalanib yetishadi, so'ngra, uning ustozona qobiliyati natijasida o'z xususiyatlarini ifoda etsa, o'zining ijro uslubini shakllantiradi. Lekin, ustozining maktabi negizidagi barcha an'analar uslub sifatida amaliyotda muhrlanadi.

Yuqorida zikr etilgan har bir ustozlarning ijrochilik amaliyotlarida ushbu jarayon o'ziga xos shaklda gavdalangan. Shu bois ular ijrochilikdagi asoslangan maktablari va o'z ijro uslublariga ega bo'lganlar.

Ustoz san'atkor G'ulomjon Qo'chqorov o'zining pedagogik faoliyati davomida ko'plab sozandalarga shu kasbning ilk bosqichi bo'yicha saboq berib, sozandalik kasbiga olib kirgan ustoz hisoblanadi. Ustozni ta'limini olib oliy o'quv dargohlarida tarbiyalanib va sozandalik sohasida katta-katta yutuqlarga erishgan sozandalar talaygina. Shulardan G'ulomjon Hojiqulov, Rifatilla Qosimovlarni misol qilish mumkin.

Sulaymon Taxalov

Sulaymon Taxalov – rubob va ud cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha pedagogik faoliyat olib borib bir qator shogirdlar tarbiyalashga muyassar bo'lgan. Sulaymon Taxalov pedagogik ishi bilan birga faol ijrochilik

faoliyatini ham olib borgandir. Mohir sozandaning ud cholg'u sozida ham bir qator asarlarni ijro etib, magnit tasmalariga, plastinkalarga yozib qoldirishga muvaffaq bo'lgani ma'lum. Uning ud cholg'u sozida ijro etgan maqom va mavrigi namunalari hozirda ham ijrochilik an'anasini davom ettirib kelayotgan sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda.

Rifatilla Qosimov

Rifatilla Qosimov ustoz san'atkor G'ulomjon Qo'chqorovdan dastlabki saboqlarini olib sozandalik dunyosiga kirib keladi. So'ngra Sulaymon Taxalov sinfida an'anaviy ijrochilik sirlarini o'zlashtiradi. Konservatoriyada ko'p yillar davomida olib borgan pedagogik va ijrochilik faoliyati davomida, maqomlarni talqini bilan bog'liq o'z ijro uslubini shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Uning sinfida tarbiyalanib, ijro amaliyotida munosib ish olib borayotgan sozandalar uning ijrochilik uslubi davomchilari hisoblanadilar.

Abdunabi Ziyayev
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist

Maqom ansambli faoliyatida Abdunabi Ziyayevning tutgan o'rni beqiyosdir. U ansambl tarkibida cholg'ularni bir-biri bilan uyg'unlashtirish, ovozlar balansini yaratish va maqomlarning mazmunini yanada chuqur ifodalash yo'lida tinimsiz ishlagan. Uning ijodiy yondashuvi tufayli maqom ansambllarining ijrosi nafislik, aniqlik va jo'shqinlik bilan boyitilgan. Ziyayev maqom kuylarining noyob musiqiy ohanglarini saqlab qolish bilan birga, ularni yangi ijrochilik imkoniyatlari bilan boyitishga ham katta e'tibor qaratgan.

Abdunabi Ziyayevning maqom ansamblidagi faoliyati faqat ijro bilan cheklanib qolmagan. U ansamblning yangi avlod ijrochilarini tarbiyalash, ularga milliy musiqiy an'analarni o'rgatish va ijrochilik madaniyatini shakllantirish yo'lida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Uning mahorati va tajribasi yosh musiqachilarning rivojlanishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilgan.

Abdunabi Ziyayevning maqom ansamblidagi yorqin faoliyati va ijodiy mehnati uning ismini o'zbek musiqa san'ati tarixida oltin harflar bilan yozilishiga sabab bo'ldi. U o'z hayoti davomida milliy musiqiy merosimizni boyitish, rivojlantirish va keyingi avlodlarga yetkazish yo'lida katta iz qoldirdi.

Sherzod Kenjayev

Orziyev Odil

Qodirov Otabek

Bulturov Umarali

Xolmatov Mashxurbek

Xasanov Azamat

Ataboyev Asilbek

Tanlangan asarni ijro etishdan oldin o'rganish uchun yuqoridagi ustoz sozandalarning ijro yozuvlarini tinglash, video yozuvlarini tomosha qilish tavsiya etiladi.

2.3. Tanlangan asarni nota matniga qarab ijro etish

An'anaviy cholg'u ijrochilari amaliyotida nota yozuvidan foydalanish amaliyoti ancha kamayib ketgani ma'lum. Bunda asosiy sabab qilib Yevropa nota yozuvining o'zbek musiqa namunalari, Sharqona ohanglarni yozuvda munosib aks ettira olmagani deyiladi. Bunda bir jihatga e'tibor qaratish kerakki, nota bu – musiqiy belgi bo'lib, haqiqiy musiqani aks ettira olmaydi. Undan faqat chinakam musiqaning asli emas, soyasi sifatida foydalanmoq darkor. Hattoki, Yevropa kompozitorlari ijodiy asarlarini ham o'z holicha, ya'ni yozilganidek ijro etilsa, musiqaning asl mohiyati chiqmasligi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, nota yozuviga nisbatan bizning yuqori talablarimizni o'ylab ko'rish kerakdir, balki. Notadan musiqiy asarning yo'qolib ketmasligi, to'g'ri yo'linigina aks ettirishi kabi ko'nikmalarda foydalanmoq zarur. Musiqiy asarni nota yordamida o'rganish, ijro etish va o'rgatish o'ziga xos samara berishi amaliy tajribada bir necha bora sinalgan. Nota yordamida musiqiy asarni o'zlashtirgan musiqachilar har tomonlama barkamol ijrochi sifatida kamol topadi. Shuning uchun ham istalgan musiqiy asarni nota yozuvi yordamida o'zlashtirish tavsiya etiladi.

2.4. Kuyning melizmatikasi (cholg‘uga mos bezaklar, shtrixlar) ustida ishlash

Xalqimiz merosida musiqiy cholg‘ular talaygina. Ularning har birini o‘z tarixi, tarix davomida takomillashib rivojlangan jarayonlari, milliy musiqa va mumtoz musiqamizning rivojiga, ijrochilik amaliyotining kamolotiga bo‘lgan ta’siri mavjud. Bularning aksariyati tarix davomida yozilgan risola va kitoblarda ma’lum darajada o‘z aksini topgan. Lekin, ijrochilik masalalarida, aslida jonli jarayon bo‘lganligi sabab bo‘lsa kerak asosan ijro amaliyotiga e’tibor qaratilgan.

Ijro amaliyotining eng o‘ziga xos nuqtasi sifatida musiqiy bezaklar, kuyning melizmatikasi kabilarni alohida qayd etish joiz. Bunda forshlag, bidratma (trel), to‘lqinlatish, nolish, molish, kashish kabi belgilar orqali musiqiy bezaklarga ishoralardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagi belgilar ud cholg‘usidagi shtrixlarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash maqsadida ishlatiladi:

П – mezrob bilan torlarni pastga urish belgisi;

V – mezrob bilan torlarni yuqoriga urish belgisi;

+ – zarbsiz, torlarni chap qo‘l barmoqlari bilan ijro etish belgisi.

2.5. Kuyning dinamikasi ustida ishlash

Sharq xalqlarining qadimiy cholg'ularidan hisoblanmish ud sozining o'zbek mumtoz musiqa merosi ijrochiligi amaliyotida keng qo'llanilishining ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'tgan asrning 70-yillaridan ijro amaliyotida buning qayta tiklanishi maqom ijrochiligi va umuman o'zbek musiqa ijrochiligini ahamiyatli darajada boyitdi, desak adashmagan bo'lamiz. Maqomlar ijrochiligida yanada salobatli sadolantirish qayta tiklandi. Ud cholg'u ijrochiligiga ahamiyat kuchaydi, ta'lim tizimida ustoz-shogird qabilida saboq berish ma'lum darajada yo'lga qo'yildi. Ta'lim jarayonini keng miqyosda amaliyotga joriy qilishda ustoz san'atkor, konservatoriya professori Rifatilla Qosimovning say'i harakatlari o'z samarasini namoyon etdi. Uning sinfida tarbiyalanib, amaliyotda munosib faoliyatini olib borgan bir qator shogirdlar ud cholg'u ijrochiligini keng ommalashishiga zamin yaratdilar. Turli vohalarda o'ziga xos maktab davomchilari sifatida olib borgan ustoz-shogird an'analari faoliyati negizida, ud ijrochilarining yangi avlodlari yuzaga keldi.

Ud cholg'ularining zamonamizga kelib davrga mos rivojida, ijro yo'llarining samaralarida ustoz-shogird an'analari asosida berib kelinayotgan ta'lim alohida ahamiyatga egaligi yana bir bor o'z isbotini topdi. Cholg'u ijrochiligida o'tmish mohir sozandalaridan meros bo'lib qolgan ustoz-shogird an'anasini kelajak avlod tomonidan munosib davom ettirilishi lozim. Bunda o'z navbatida bir qator muhim jihatlarga e'tibor qaratilishi lozimligi haqida yuqorida ta'kidlagan edik. Ana shu muhim jihatlardan yana biri bu kuyning dinamikasi ustida ishlash bo'lib, bu borada ustozlar tajribasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda talaba-sozanda ustozidan kuyning dinamikasi bo'yicha kerakli tavsiya va ma'lumotlarni egallashi lozim. Musiqiy asarning ta'sir kuchini beqiyos darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan dinamika kuchidan barcha zamonlarda, barcha makonlarda, barcha ijrochilar samarali foydalanganlari tarixdan bizga ma'lum. Shuning uchun ham har qaysi talaba-sozanda kuy dinamikasida ehtiyotkor bo'lishi va bu mavzuga jiddiy yondoshishi talab etiladi.

Hojiniyoz I

Xalq kuyi



Hojiniyoz II

Xalq kuyi



Qo'shchinor

Xalq kuyi

O'rtacha tez






1.
2.

Orzu dil

Moderato ♩ = 80

Muhammad Otajonov notalashtirgan




47
52
56
60
64
68
71
74
tr
tr
78
83
tr
tr
87

Guluzorim

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqasi




mf
f
mf
f
mf
f
mf
f


mf
f
mf
f
rit..

Qora dali

Xorazm xalq kuyi

Muhammad Otajonov notalashtirdi

Moderato




47
51
54
58
62
66
70
74
77
79
82


85
89
93
97
101
105
rall.

Bahor

Ahmadjon Dadayev musiqasi.
M.Otajonov notalashtirdi

Allegretto




38
42
46
49
52
55
59
63
66

Gulbahor



Kurt




63
70
76
83
90
97
104
111
118
125
132


139
146
153
160
167
174
181
188
195
202
209


216
223
230
237
244
250

Jonon




74
82
89
96
104
108
1.
2.

GLOSSARIY

Allegro vivace	allegro vivache	живо	tez, jonli
Presto	Presto	бистро	tez
Prestissimo	Prestissimo	очен бистро	juda tez
Vivo	Vivo	живо	jonli, tez
Vivace	Vivache	очен живо	o‘ta jonli, tez
Veloce	Veloche	скоро	tez
Allegro	Allegro	оживлённо	tez, shitob ila
Allegro maestose	allegro mayestoza	скоро, величественно	tez, tantanavor
Allegro con moto	allegro kon moto	скоро, с движением	allegrodan tez, xarakat bilan
Allegro agitato	allegro adjitato	скоро, взволнованно	tez, hayajonli
Allegro con brio	allegro kon brio	скоро, с жаром	tez, g‘ayrat bilan
Allegro con fuaco	allegro kon fuako	скоро, с огнём	tez, jo‘shqinlik bilan
Allegro brillante	allegro brillyante	скоро, с блеском, блестяще	tez, qoyilmaqom
Allegro furiose	allegro furyozo	скоро, яростно	tez, shiddat bilan
Andante	Andante	не спеша	shoshmay, osoyishta ijro qilinadigan sur’at
Andantino	Andantino	немного скорее чем анданте	andantadan tezroq, o‘rtacha tezlikdagi sur’at
Allergo-moderato	allergo-moderato	умеренно скоро	o‘rtacha (xiylagina) tez
Allegretto	Allegretto	довольно скоро, подвижно	xiyla tez, serharakatlik bilan
Allegro non treppo	allegro non troppo	не слишком скоро	shoshilmay, qoniqarli

			tezlikda
Commado	Kommado	удобно, спокойно	tinch, osoyishta, bemalol
Moderato	Moderato	умеренно	o‘rtacha, mo‘tadil sur’at
Sostenuto	Sostenuto	сдержанно	vazminlik, bosqinlik bilan
Adagio	Adajio	медленно	sekin, tinch, og‘ir
Adagio assai	adajio assay	весьма медленно	juda sekin
Grave	Grave	строго медленно, тяжело	qat’iy, og‘ir, sekin
Lento	Lento	медленно	sokin, cho‘zib
Largo	Lyargo	широко	yayrab, keng
Larghetto	Lyargetto	немного скорее чем лярго	lyargodan sal tezroq, vazmin sur’at
Largo assai	lyargo assay	весьма широко	juda yayrab, keng
A tempo	a tempo (tempo-prima)	первоначальный темп	dastlabki sur’at
Alla breve	allya breve	в короткой манере, укороченно	qisqartirilgan, to‘rt chorakli o‘lchovli taktni ikki o‘lchovda taktlashni ko‘rsatadi
Allargande	allyargando	расширяя, замедляя	yayrabroq, vazminlashtirib ijro etish
Ad libitum	ad libitum	по желанию	istagan sur’atda, xohishga qarab
Animate	Animato	воодушевлённо, оживлённо	shod-xurramlik bilan
Agitate	Adjitato	возбуждённо, взволнованно	hayajonlanib, to‘lqinlanib
All marcia	allya marchya	в духе марша	marsh ruhida

Appesienate	appassyonato	отрадно	kuchli extiros bilan
Amoroso (con amare)	amorozo (kon amare)	любовно	mehr-muhabbat bilan, oshiqona
Accelerando	Achchelerando	ускоряя	sur'atni tobora tezlata borib
Calando	kalando (qisq.kol.)	замедляя, ослабевая	sur'at sekinlashib, tovush pasaya boradi
Cantabile	kantabile	певуче	yoqimli, xonish
Son grasia	kon gratsia	с грацией	nozik xarakat, latofat, zebolik bilan
Con dolore	kon dolore	с грустью	qayg'uli
Con spirito	kon spirito	с чувством	ixlos bilan
Capriccioso	Kaprichchiozo	капризно	tantiqlik, nozu karashma bilan
Doloroso	dolorozo	с болью, с тоской	dardli, g'amgin
Dolente	Dolente	грустно, жалобно	g'amgin, mungli ovozda
Dolce	Dolche	нежно	mayin, muloyim
Eledante	Elegante	элегантно	orastalik, zebolik bilan
Energico	Energiko	энергично	g'ayrat bilan, qat'iy
Eroico	Eroiko	героически	qahramonona, mardonavor
Espressive (eapr.)	ekspressivo	выразительно	ifodali, ma'nodor qilib
Funebre	Funebre	скороно, печально	qayg'urib, motamsaro
Grandioso	grandiozo	величественно	ulug'vor, tantanavor
Giocoso	djookozo	шутливо, игриво	hazilomuz, o'ynoqi

Imperioso	imperyozo	повелительно	amirona, shohona ishora bilan
Listesse tempo	listesso tempo	тот же темп	o‘sha sur’at
Lacrimoso	lakrimozo	слёзно	g‘amgin, marsiyaomuz
Molto	Molto	очень	juda
Morendo	morendo	замирая	iztirobda (ovozning titrab pasaya borishi)
Marcialo	marchalo	легко	yengil
Marsiale	mars’ale	воинственно	jangari, larzakor
Mesto	Mesto	печально	mayus (g‘amgin)
Marcato	Markato	подчёркивая	ta’kidlab, urg‘u berib
Meno mosso	meno mosso	менее подвижно	bir oz bo‘shashib
Piu mosso	pyu mosso	более подвижно	xarakatchanroq (sur’atning tezlashishi)
Pesante	Pezante	тяжело, грузно	vazmin, salmoqli
Poko a poko	poko a poko	мало по малу	asta-sekin
Rallentando (rall.)	rallentando	замедляя	sekinlata borish
Riselute (risol.)	rizolyuto	решительно	dadil
Ritardando (ritart.)	ritardando	запаздывая	sur’atning sustlasha va og‘irlasha borishi
Ritenute (rit.)	Ritenuto	замедляя, сдерживая	sekinlata borish
Slargande	slargando	замедляя, расширяя, усиливая	sur’atni sekinlata borish va tovushni

			kuchlantira, kengaytira borish
Smorzande	smorsando	замедление, ослабление	tovushni pasaytira borish, ijroni sekinlatish
Sonore	sonore	евучно	yangroq, jarangdor
Spirituoso	spirituozo	одухотворённо	ruhlanib, jo'shqinlik bilan
Stringendo	strinjendo	гоня (сжимая)	quvlagannamo
Scherzando	skersando	шутливо	hazilomuz
Scherzoso	skersozo	шутливо	hazilomuz, askiyaomiz
Tempestoso	tempestozo	бурно	suronli, jo'shib
Tempo rubato	tempo rubato	свободный темп	erkin sur'at
Tenebroso	tenebrozo	мрачно, таинственно	dardli, sirli ravishda
Tenero	tenero	нежно	muloyim

pp – pianissimo (pianissimo) – juda past;

p – piano (piano) – past;

mp – mezzo piano (metsso piano) – o'rtacha past, pianoga nisbatan biroz kuchliroq;

mf – mezzo forte (metsso forte) – o'rtacha kuchli, metsso pianoga nisbatan biroz kuchliroq;

f – forte (forte) – kuchli;

ff – fortissimo (fortissimo) – juda kuchli;

cresc., crescendo (kreshendo) yoki – (chizma shakli) belgisi asta–sekin tovushni kuchaytirib borishni ko'rsatadi.

dim., diminuendo (diminuendo) yoki (chizma shakli) belgisi – tovushni asta-sekin pasaytirib borishni ko'rsatadi.

ppp (piano-pianissimo yoki pianissisimo) – judayam past;.

fff (forte-fortissimo yoki fortissisimo) – judayam kuchli;

sf – sforzando (sforsando) belgisi biror-bir nota yoki akkordni keskin zarb bilan ajratib ijro etilishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ASOSIY MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3391-sonli Qarori matni.
2. Ayxodjayeva Sh., Ergasheva Ch., Zokirov A. O‘zbek musiqasi tarixi. —Toshkent, 2018.
3. Begmatov S., Matyoqubov M. O‘zbek an’anaviy cholg‘ulari. – Toshkent, 2006.
4. Feruza Asqar. Musiqa va inson ma’naviyati. — Toshkent, 2003.
5. Internet saytlari va Google topilmalari.
6. Jumayev S. Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi. – Toshkent, 2016.
7. Mirfayozov B. Soz darsligi. — Toshkent, 2006.
8. Nurmatov Xamidulla. Qashqar rubobi. — Toshkent, 2003.
9. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. — Toshkent, 2011.
10. Qosimov R. An’anaviy rubob ijrochiligi. — Toshkent, 1999.
11. Qosimov R. An’anaviy tanbur ijrochiligi. — Toshkent, 2002.
12. Qosimov R. Ud. — Toshkent, 2002.
13. Rajabov I. Maqom asoslari. — Toshkent, 1992.
14. Rasultoyev J.K. O‘zbek dutor ijrochiligi. — Toshkent, 1997.
15. Taxalov S. Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodikasi asoslari. — Toshent, 1983.
16. Toshmatov O‘., Turatov S. Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi. – Toshkent, 2016.
17. Umarov A. Tanbur navolari. — Toshkent, 1995.
18. Usmonov Qobil. Boshlang‘ich rubob darsligi. – Toshkent, 1975.
19. Беляев В.М. Музикалние инструменти Узбекистана. – Москва, 1933.
20. Кароматов Ф. Ўзбек чолғу мусиқаси. — Тошкент, 1971.
21. Ражабий Ю. (ёзиб олувчи). Шашмақом I-VI. — Тошкент, 1966-75.
22. Ражабий Ю. (тўпловчи). ўзбек халқ музикаси И-В. – Тошкент, 1957-59.
23. Ражабов И. Мақомлар масаласига доир. — Тошкент, 1963.
24. O‘zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi (elektron versiya).
25. Фитрат А. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. – Тошкент, 1993.
26. Эrsin Эrsavaş, İbrahim Karaoğlu. Temel Ud Eğitimi.

MUNDARIJA

Kirish 3

I BOB. SHASHMAQOM, XORAZM MAQOMLARI VA FARG'ONA–TOSHKENT MAQOM CHOLG'U YO'LLARIDAN 8

1.1. O'quv yili uchun dastur tanlash. Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona–Toshkent maqom cholg'u yo'llaridan birini tanlash va tanishish 15

1.2. Tanlangan asarning audio va video yozuvlari bilan tanishish 19

1.3. Asarning usulini tahlil qilib o'rganish 22

1.4. Tanlangan cholg'u yo'lini nota matnlariga qarab tahlil qilib o'rganish 24

1.5. Asarning melizmatikasi (cholg'uga mos bezaklar, shtrixlar) ustida ishlash 25

1.6. Asarning dinamikasi ustida ishlash 26

Tasnifi Dugoh 27

Tarjei Dugoh 32

Samoyi Dugoh 35

Muxammasi Nasrulloyi 38

Tasnifi Navo 41

Tarjeyi Navo 44

Garduni Navo 46

Muxammasi Navo 47

Muxammasi Husayniy 52

Hafifi Segoh 55

Qal'a bandi 60

Ilg'or 66

Aliqambar 69

Nasri Segoh 74

Navro'zi ajam 77

II BOB. O'ZBEK XALQ KUYI VA BASTAKORLAR IJODI 81

2.1. O'zbek xalq kuylari va bastakorlar ijodiga mansub kuylardan tanlash va tanishish 83

2.2. Tanlangan asarlarni ustozlar ijrosidagi audio va video yozuvlardan eshitib tahlil qilish 85

2.3. Tanlangan asarni nota matniga qarab ijro etish 91

2.4. Kuyning melizmatikasi (cholg'uga mos bezaklar, shtrixlar) ustida ishlash 92

2.5. Kuyning dinamikasi ustida ishlash 93

Hojiniyoz I 94
Hojiniyoz II 95
Qo'shchinor 96
Orzu dil 99
Guluzorim 101
Qora dali 104
Bahor 107
Gulbahor 109
Kurt 110
Jonon 114
Glossariy 116
Foydalanilgan adabiyotlar 121

Ali Djurayev

MAQOM CHOLG‘U IJROCHILIGI (UD)

O‘quv qo‘llanma muallifning tahririda taqdim etilgan.

7443

“Bookmany print” nashriyoti
Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.
Bosishga ruxsat etildi: 07.05.2025.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{8}$
Nashriyot bosma tabog‘i 7,1. Shartli bosma taboq 14,5.
Adadi 100 nusxa. Ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10



BOOKMANY PRINT
publishing company

ISBN 978-9910-06-526-2
9 789910 065262